



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2024 - yil « 15 » iyul 247 -son

Toshkent shahri

Respublika oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida xorijiy tillar
(ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab)
fan olimpiadasini o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning xorijiy tillar bo‘yicha bilimlari, qobiliyatlarini namoyon etish, iste‘dodlarini ro‘yobga chiqarish, iqtidorli yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda munosib taqdirlash, shuningdek, O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining murojaati asosida xorijiy tillar fan olimpiadasini o‘tkazish bo‘yicha vazir o‘rinbosari tashabbusi bilan kiritilgan taklifga vazir roziligi olingan topshiriq ijrosini ta‘minlash maqsadida

B U Y U R A M A N

1. O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 30-maydagi 01/1852-son xatida keltirilgan xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiadasini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha taklifi ma‘qullansin.

2. 2024-yildagi Respublika oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiadasi (keyingi o‘rinlarda – **Olimpiada**) O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida joriy yil sentabr oyining uchinchi dekadasida o‘tkazilsin.

3. Quyidagilar:

Respublika oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida har yili o‘tkaziladigan xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiadasi to‘g‘risida Nizom 1-ilovaga muvofiq;

Olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq;

Olimpiadani o‘tkazishga tayyorgarlik va tashkiliy ishlarni amalga oshirish bo‘yicha **Tashkiliy qo‘mita** tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tashkiliy qo‘mita (M. Boltabayev)ga:

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov) bilan birgalikda olimpiadani o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi asosida ishlarni tashkil etish;

olimpiadaning mazkur Nizom talablari asosida tashkil etilishi, uni yuqori saviyada, adolat, xolislik va oshkoralik mezonlari asosida o‘tkazilishini ta‘minlash;

olimpiadaning birinchi bosqichi natijalari bo'yicha oliy ta'lim muassasalaridan hisobotlarni qabul qilish;

joriy yilning 25-sentabriga qadar olimpiada g'oliblariga beriladigan vazirlikning I, II, va III darajali diplomlarini tayyorlash;

olimpiadaning yakuniy natijalari bo'yicha hisobotni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov)ga:

olimpiadani o'tkazish jarayonlarini muvofiqlashtirib borish;

olimpiada ishtirokchilarini kutib olish, joylashtirish, ovqatlanishini tashkil etish, zarur hollarda tibbiy xizmat ko'rsatish;

olimpiadani o'tkazishda nazoratni kuchaytirish maqsadida olimpiada o'tkaziladigan joylarda video-kuzatuv tizimini yo'lga qo'yish;

olimpiada o'tkazilishi bilan bog'liq jarayonlarni ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlarda yoritish;

belgilangan tartibda tovar xom-ashyo birjasida shakllangan narxlar asosida moddiy qiymatliklarni xarid qilish bilan bog'liq shartnomalarni rasmiylashtirish, ko'rsatilgan xizmatlarni o'z vaqtida qabul qilib olishni, yetkazilishini hamda xarajatlarni amalga oshirishda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga qat'iy rioya etish vazifasi topshirilsin.

6. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari Sh. Daliyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



K. Sharipov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining 2024 yil 15 -iyuldagi
244 -son buyruq'iga 1-ilova



**Respublika oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan xorijiy tillar
(ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab)
fan olimpiadasi to'g'risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom talabalar o'rtasida xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) bo'yicha fan olimpiadasini (keyingi o'rinlarda **Olimpiada** deb yuritiladi) tashkil etish, o'tkazish, unda qatnashish, olimpiada g'oliblarini aniqlash va rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Respublika oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiadasi oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida ikki bosqichda o'tkaziladi.

3. Olimpiadaning birinchi bosqichi oliy ta'lim muassasalarida har yili 25-sentabrga qadar o'tkaziladi. Olimpiadani yuqori saviyada o'tkazishda oliy ta'lim muassasalari rektorlari shaxsan mas'ul hisoblanadi.

4. Olimpiadaning birinchi bosqichi natijalari oliy ta'lim muassasalarining Kengashida muhokama qilinadi. Faqat birinchi o'rinni egallagan ishtirokchi, oliy ta'lim muassasasi Kengashining qarori bilan tasdiqlangan g'oliblar olimpiadaning ikkinchi bosqichida qatnashish huquqiga ega bo'ladi.

5. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti – olimpiadaning ikkinchi – yakuniy bosqichini o'tkazish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi.

6. Olimpiadaning ikkinchi – yakuniy bosqichi har yili sentabr oyining yakuniga qadar O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida o'tkaziladi.

7. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti imtihon va apellyatsiya komissiyalari tarkibini shakllantirish, olimpiada yakuniy bosqichining adolatli va xolis o'tishini nazorat qilish, natijalarini tahlil etishda mas'ul hisoblanadi.

8. Olimpiadaning yakuniy bosqichiga bevosita rahbarlik qilish, uslubiy shakllantirish, imtihon va apellyatsiya komissiyalari tarkibini, olimpiada g'oliblari va sovrindorlarini tasdiqlash Tashkiliy qo'mita tomonidan amalga oshiriladi.

9. Tashkiliy qo'mita a'zolari tarkibi vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

10. Olimpiada o'tkaziladigan auditoriyalar videokuzatuv kameralari bilan jihozlanadi. Olimpiada jarayonlari davrida ishtirokchilarning telefon va turli aloqa vositalaridan foydalanishlari taqiqlanadi. Ommaviy axborot vositalari vakillariga olimpiada jarayoniga xalaqit qilmagan holda kuzatishlariga ruxsat beriladi.

11. Olimpiada jarayonida ishtirokchilarning o‘zaro gaplashishi, aloqa vositalari va turli qo‘shimcha manbalardan foydalanishi holatlari aniqlanganda ishtirokchi olimpiadadan chetlashtiriladi, bayonnoma rasmiylashtiriladi, bajargan ishlari tekshirilmaydi va baholanmaydi.

12. Hakamlar hay’ati a’zolari, auditoriya rahbari va nazoratchilari moddiy rag‘batlantiriladi. Mukofot va rag‘batlantirish miqdori Tashkiliy qo‘mita tomonidan belgilanadi.

2-bob. Olimpiadaning asosiy maqsad va vazifalari

13. Olimpiadaning asosiy maqsadi – talabalarning xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) bo‘yicha fanga oid bilimlarini mustahkamlash, xorijiy tillarni bilish darajasi bo‘yicha ko‘nikmalarini takomillashtirish, tarjimonlik mahorati hamda fanda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish, yoshlar o‘rtasida bilimlarning keng tarqalishi va ommalashishiga erishishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

14. Olimpiadaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

oliy ta’lim muassasalarida iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonini yanada takomillashtirish;

talabalar o‘rtasida iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni saralash va qo‘llab-quvvatlash;

talabalarning xorijiy tillarga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish;

talabalarning tarjimonlik sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash;

talabalarining xorijiy tillarda ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishlariga sharoit yaratish;

talabalarning fanga oid bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash va intellektual salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish;

olimpiada g‘oliblari orasidan xalqaro fan olimpiadalarida mamlakatimiz sharafiga himoya qilish uchun Respublika terma jamoasiga nomzodlar tarkibini shakllantirish;

mantiqiy, tanqidiy va tahliliy fikrlash va fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish va boshqalar.

3-bob. Olimpiadaning ikkinchini bosqichini tashkil etish va o‘tkazish tartibi

15. Olimpiadaning ikkinchi bosqichi har yili O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida o‘tkaziladi.

16. Tashkiliy qo‘mita Muvofiqlashtiruvchi organ bilan birgalikda:

ikkinchi bosqichning o‘tkazilishini muvofiqlashtirish uchun mas’ul vakillarni belgilaydi va ular ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi.

oliy ta'lim muassasalariga olimpiada o'tkazish joyi, shartlari va muddati ko'rsatilgan holda olimpiadada ishtirok etish uchun rasmiy taklifnomalar yuboradi.

17. Olimpiadani o'tkazish jarayoni va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy veb-saytlarida yoritiladi.

18. Olimpiadani o'tkazish jarayonida qoidabuzarliklar (jamo a'zolari to'g'risida noto'g'ri ma'lumotlar, teng ishtirok etish tamoyillarining buzilishi, nomaqbul xatti-harakatlar va h.k.) aniqlangan taqdirda, Tashkiliy qo'mita tegishli intizomiy jazo choralarini ko'rish, shuningdek, olimpiadaning istalgan bosqichida ishtirokchilarni diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega.

4-bob. Olimpiadaning ikkinchi bosqichini o'tkazish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi organning vazifalari

19. Olimpiadaning ikkinchi bosqichini mazkur Nizom talablari asosida tashkil etish, olimpiadani o'tkazish jarayonini nazorat qilish va vazirlikka hisobot berish.

20. Olimpiada ishtirokchilarini kutib olish, joylashtirish, ovqatlantirishni tashkil etish, zarur hollarda tibbiy xizmat ko'rsatish va kuzatish.

21. Ishtirokchilar va jamoa rahbarlarini olimpiada Nizomi, o'tkazish tartibi bilan tanishtirish.

22. Olimpiadaning ilmiy-uslubiy jihatdan yuqori saviyada, adolat va oshkoralik mezonlari asosida o'tkazilishini ta'minlash.

23. Olimpiada jarayonida ro'y berishi mumkin bo'lgan texnik nosozliklar va anglashilmovchiliklarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

24. Olimpiada natijalarini olimpiada ishtirokchilari va OTM mutasaddi vakillari ishtirokida e'lon qilish, zarur hollarda ishtirokchilar va qatnashuvchi OTMlar mutasaddi vakillari savollariga javob berish, ularning e'tirozlarini ko'rib chiqib, o'rnatilgan tartibda bartaraf etish.

25. Tarixiy-madaniy yodgorliklar, muassasalar va muzeylarga sayohatlar tashkil etish.

5-bob. Hakamlar hay'ati

26. Olimpiadada bellashuv jarayonlarining barcha bosqichlarini nazorat qilib borish uchun Tashkiliy qo'mita tomonidan (zarur hollarda Tashkiliy qo'mita a'zolari orasidan hamda xorijiy mutaxassislar jalb etilishi mumkin) 3 nafardan 7 nafargacha a'zo bo'lgan tarkibda Hakamlar hay'ati tuziladi.

27. Hakamlar hay'ati:

olimpiada jarayonida beriladigan nazorat materiallari ekspertizadan o'tkazadi;

Baholash mezonlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Tashkiliy qo'mitaga taqdim etadi;

olimpiada ishtirokchilari tomonidan bajarilgan ishlarni tasdiqlangan baholash mezonlari asosida xolisona tekshiradi, baholaydi va g'oliblarni aniqlaydi;

baholash natijalarini e'lon qiladi;

o'tkazilgan olimpiada natijalari bo'yicha qaror qabul qiladi va uni bayonnoma tuzib, Tashkiliy qo'mitaga taqdim etadi.

28. Hakamlar hay'ati a'zolari olimpiada g'oliblarini xolisona aniqlashda va nazorat materiallarining maxfiyligini ta'minlashda shaxsan javobgar hisoblanadi.

6-bob. Apellyatsiya komissiyasi

29. Apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay'ati tarkibiga kirmagan uch nafargacha fan bo'yicha mutaxassislardan iborat tarkibda tuziladi (zarur hollarda Tashkiliy qo'mita a'zolari orasidan).

30. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan olimpiada ishtirokchilarining arizalari olimpiada natijalari e'lon qilingandan so'ng 24 soat ichida qabul qilinadi. Apellyatsiya jarayonida hakamlar hay'ati a'zolari, ishtirokchi va uning fan o'qituvchisi ishtirok etishi mumkin.

31. Apellyatsiyada olimpiada ishtirokchilarining faqatgina o'zlari tomonidan bajarilgan ishlari qayta ko'rib chiqiladi.

32. Hakamlar hay'ati tomonidan baholangan ishtirokchining bajargan ishida baholash mezonlariga mos kelmaslik holatlari aniqlanganda, apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay'ati qarorini bekor qilish yoki ularga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha taklif beradi.

33. Apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay'atiga apellyatsiya natijalari bo'yicha izoh berib, olimpiada natijalarini o'zgartirishi mumkin va bunda apellyatsiya komissiyasi bilan kelishilgan holda zarur holatlarda hakamlar hay'ati qarori qayta tasdiqlanadi.

7-bob. Olimpiada g'oliblarini aniqlash tartibi

34. Olimpiadaning birinchi bosqichi oliy ta'lim muassasalari Tashkiliy qo'mita natijalari asosida aniqlanadi va birinchi o'rin g'oliblari ikkinchi bosqichga tavsiya etiladi.

35. Olimpiadaning ikkinchi bosqichi natijalari Tashkiliy qo'mita qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

36. Olimpiada g'oliblari quyidagi topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilish darajasiga qarab aniqlanadi:

Birinchi shart – test.

Mamlakatshunoslik, adabiyot, grammatik va leksik materiallar asosida tuzilgan 50 ta savoldan iborat test topshiriqlarini bajarish uchun 100 daqiqa;

Ikkinchi shart – yozma.

15-20 daqiqa davomida badiiy filmdan parcha ko'rish va mazmunini yozma ravishda kamida 300 so'zdan iborat bayon yozish 40 daqiqa;

Uchinchi shart – tarjima.

O'zbek yoki rus tilidagi matni chet tiliga tarjima qilish uchun 30 daqiqa;

To'rtinchi shart – suhbat.

Tili o'rganilayotgan mamlakatning davlat tizimi, iqtisodiyoti va san'ati, buyuk siymolari, yoshlar hayoti va shu kabilar haqida tayyorgarlik uchun 20 daqiqa, suhbat uchun 10 daqiqa vaqt beriladi.

37. Olimpiadada qatnashgan talabalar o'rtasida o'rinlarni taqsimlash olimpiada bosqichlarida berilgan topshiriqlar asosida to'plagan ballarga qarab aniqlanadi.

38. Barcha bosqichlardan o'tgan talabalarning umumiy to'plagan ballari hisoblanib, natijalar kamayib borish ketma-ketligida g'oliblarning o'rni aniqlanadi.

39. Olimpiadaning ikkinchi bosqichi g'oliblarining soni har bir fan bo'yicha quyidagicha belgilanadi:

birinchi o'rin – 1 nafar;

ikkinchi o'rin – 1 nafar;

uchinchi o'rin – 1 nafar.

40. Bir necha talabgorlarning natijalari bo'yicha ular tomonidan to'plagan yakuniy ballari teng bo'lgan taqdirda ularga qo'shimcha test belgilanadi.

41. Tashkiliy qo'mita qaroriga ko'ra, ikkinchi o'ringa ikki nafar hamda uchinchi o'ringa uch nafargacha talabgor g'oliblikka tavsiya etilishi mumkin.

8-bob. Olimpiada g'oliblarini taqdirlash tartibi

42. Olimpiadaning ikkinchi bosqichida 1, 2, 3-o'rinlarni egallagan talabalarga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 1, 2, 3-darajali diplomi beriladi.

43. Olimpiada g'oliblari talaba stipendiyasi bazaviy miqdorining tegishli ravishda 5, 4, 3 baravari miqdorida pul mukofotlari bilan rag'batlantiriladi.

44. Tashkiliy qo'mita olimpiada g'oliblarining amaldagi qonunchilikka muvofiq magistraturaga qabul qilinishi bo'yicha tegishli oliy ta'lim muassasasiga tavsiya berishi mumkin.

9-bob. Olimpiadani moliyalashtirish

45. Olimpiadani tashkil etish, o'tkazish, bilan bog'liq barcha xarajatlar (olimpiada jarayonida Tashkiliy qo'mita, Hakamlar hay'ati, barcha ishtirokchilar va ularning ilmiy rahbarlarining ovqatlanishi va turar joyi, g'oliblarni taqdirlash, Tashkiliy qo'mita va Hakamlar hay'ati a'zolarini moddiy rag'batlantirish va boshqa xarajatlar) O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanadi.

46. Olimpiadani tashkil etish va o'tkazishda faol qatnashgan Tashkiliy qo'mita a'zolari va Hakamlar hay'ati a'zolari bir oylik maoshi miqdorida O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan, Olimpiada g'oliblarining ilmiy rahbarlari bir oylik maoshi miqdorida o'zlari faoliyat yuritayorgan oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan rag'batlantiriladi.

47. Olimpiadaning rasmiy dasturidan tashqari Olimpiada ishtirokchilarining ovqatlanishi va turar joyi bilan bog'liq xarajatlar jamoa a'zolarining shaxsiy mablag'lari hisobidan qoplanadi.

48. Olimpiada o'tkaziladigan joyga borish va qaytish bilan bog'liq safar xarajatlari jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasi tomonidan qoplanadi.

49. Tashkiliy qo'mita jamoa a'zolarining yashash va ovqatlanish sharoitlarini o'zgartirish bo'yicha individual istaklarini qondirishga haqli, lekin bu o'zgarishlar bilan bog'liq xarajatlarni O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti hisobidan to'lanishini kafolatlamaydi.

50. Olimpiada jarayonlarini moliyalashtirishda qonun doirasida mahalliy va xorijiy homiylar va boshqa mablag'lar jalb qilinishi mumkin.

10-bob. Yakuniy qoida

51. Mazkur nizomda belgilangan masalalar bo'yicha nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining 2024-yil 15-iyuldagi
247 -son buyruq'iga 2-ilova



Respublika oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan xorijiy (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) tillar fan olimpiadasiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada tashkil etish bo'yicha

CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	Olimpiada logotipini yaratish.	1. Xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) fan olimpiadasi bo'yicha o'tkazilgan xalqaro va milliy olimpiada tajribalari asosida olimpiada logotipi namunasini tayyorlash va tasdiqqa kiritish.	2024-yil 25-sentabr	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov) Tashkiliy qo'mita
2.	Olimpiada ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish.	1. Olimpiada haqidagi ma'lumotlarni universitet rasmiy veb-saytida e'lon qilish. 2. Olimpiadada ishtirok etish bo'yicha ishtirokchilar murojaatlarini o'rganib chiqish. 3. O'rnatilgan tartibda ishtirokchilarga xabarlar yetkazish.	2024-yil 20-sentabr 2024-yil 25-sentabr 2024-yil 25-sentabr	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov) Tashkiliy qo'mita
3.	Olimpiadaning hakamlar hay'ati tarkibini hakamlik tajribasiga ega malakali xorijiy va mahalliy mutaxassislardan shakllantirish va tasdiqlash.	1. Xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab) olimpiadalarida tajribaga ega yetuk mutaxassislar bilan bog'lanish. 2. Xalqaro darajadagi hakamlik tajribasiga ega malakali mahalliy va xorijiy mutaxassislardan hakamlar hay'ati tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.	2024-yil 20-sentabr 2024-yil 21-sentabr	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov) Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi (M. Boltabayev) Tashkiliy qo'mita
4.	Olimpiada ishtirokchilari va tashkilotchilari uchun beydjiklar va (broshyura ko'rinishidagi) olimpiada dasturini tayyorlash.	1. Beydjik va dasturlarning namunalarini tayyorlash hamda tasdiqqa kiritish. 2. Namunadagi beydjik va dasturlarni tayyorlash va chop etishni tashkil etish.	2024-yil 25-sentabr 2024-yil 25-sentabr	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov) Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi (M. Boltabayev)

5.	Olimpiada g'oliblari va sovrindorlari uchun diplom va sertifikatlar tayyorlash.	1. Diplom va sertifikatlarning namunalarini tayyorlash hamda tasdiqqa kiritish. 2. Namuna asosida diplom va sertifikatlarni tayyorlash va chop etish.	2024-yil 25-sentabr 2024-yil 25-sentabr	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov) Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi (M. Boltabayev) Tashkiliy qo'mita
6.	Olimpiadaning amaliy qismini o'tkazish uchun zarur asbob-uskunalar, texnik vositalar va jihozlarni tayyorlash.	1. Olimpiadaning amaliy qismini o'tkazish uchun zarur asbob-uskunalar, texnik vositalar va jihozlar ro'yxatini shakllantirish va tasdiqlash. 2. Ro'yxat asosida zarur asbob-uskunalar, texnik vositalar va jihozlarni tayyorlash.	2024-yil 25-sentabr 2024-yil 28-sentabr	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov)
7.	Xalqaro darajadagi xorijiy hakamlarni taklif qilish, ularga ish haqi va O'zbekistonga kelib-ketishi yo'l xarajatlarini (aviachipta) to'lab berish.	1. Tasdiqlangan ro'yxat asosida xorijiy hakamlarning ish haqi va O'zbekistonga kelib-ketishi yo'l xarajatlarini aniqlashtirish. 2. O'rnatilgan tartibda xarajatlarni o'z vaqtida to'lab berish.	2024-yil 20-sentabr 2024-yil 25-sentabr	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov)
8.	Olimpiada o'tkaziladigan joylarda tez tibbiy yordam xizmatini tashkil qilish.	1. Xalqaro olimpiada o'tkazilayotgan vaqtda Sog'liqni saqlash vazirligining hududiy boshqarmalari bilan hamkorlik o'rnatish va muntazam aloqada bo'lish. 2. Xalqaro olimpiada o'tkaziladigan joylarda tez tibbiy yordam xizmatini tashkil qilish.	Xalqaro olimpiada o'tadigan kunlar	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov) Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi (M. Boltabayev) Sog'liqni saqlash vazirligining hududiy boshqarmasi
9.	Olimpiada o'tkaziladigan auditoriya va zallarni zarur jihozlar, texnik vositalar va videokonferensiya aloqa uskunalari bilan ta'minlash..	1. Olimpiada o'tkaziladigan auditoriya va zallarni olimpiada talablari bo'yicha jihozlash va tayyorlash. 2. Olimpiadani tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish.	2024-yil 25-sentabr	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov) Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi (M. Boltabayev)
10.	Olimpiada ishtirokchilari, Tashkiliy qo'mita va Hakamlar hay'ati a'zolari uchun esdalik sovg'alar komplektini tayyorlash.	1. Olimpiada ishtirokchilari, Tashkiliy qo'mita va Hakamlar hay'ati a'zolari uchun esdalik sovg'alar komplektini tayyorlash. 2. Esdalik sovg'alari komplektini olimpiada ishtirokchilariga tantanali topshirishni tashkil etish.	2024-yil 28-sentabr Xalqaro olimpiada o'tadigan kunlar	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov) Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi (M. Boltabayev)
11.	Olimpiadaning tantanali ochilish va yopilish marosimlarini o'tkazish uchun Universitet anjumanlar zalini tayyorlash.	1. Olimpiadaning tantanali ochilish va yopilish marosimlarining ssenariy va dasturlarini tayyorlash. 2. Olimpiadaning tantanali ochilish va yopilish marosimlarini yuqori saviyada tashkil etish.	2024-yil 25-sentabr Xalqaro olimpiada	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov) Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi (M. Boltabayev)

			o'tadigan kunlar	Tashkiliy qo'mita
12.	Olimpiada ishtirokchilari va mehmonlarning Toshkent shahrining diqqatga sazovor joylariga sayohatini tashkil qilish.	<p>1. Olimpiada ishtirokchilari va mehmonlar uchun Toshkent shahrining diqqatga sazovor joylariga sayohat qilish jadvalini ishlab chiqish.</p> <p>2. Reja asosida diqqatga sazovor joylarga sayohat tashkil qilish.</p>	<p>Xalqaro olimpiada o'tadigan kunlar</p> <p>Reja asosida</p>	<p>O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov)</p> <p>Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi</p> <p>(M. Boltabayev)</p> <p>Tashkiliy qo'mita</p>
13.	Olimpiadaga tayyorgarlik va o'tkazish jarayonlarini OAVlarda keng yoritish.	<p>1. Olimpiadaga tayyorgarlik va o'tkazish jarayonlarini OAVlarda keng yoritish bo'yicha media guruh tashkil etish.</p> <p>2. Olimpiadaga tayyorgarlik va o'tkazish jarayonlarini OAVlarda keng yoritish.</p>	<p>Reja asosida</p> <p>Xalqaro olimpiada o'tadigan kunlar</p>	<p>O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (I. Tuxtasinov)</p> <p>Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi</p> <p>(M. Boltabayev)</p> <p>Tashkiliy qo'mita</p>

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining 2021 yil 19 -iyuldag
244 -son buyruq'iga 3-iloya



**Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida xorijiy tillar
(ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan, koreys, xitoy, yapon, arab)
fan olimpiadasini o'tkazishga tayyorgarlik va tashkiliy ishlarni amalga
oshirish bo'yicha**

TASHKILIY QO'MITA TARKIBI

1. M. Boltabayev Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori, **Rais**
2. I. Tuxtasinov O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori, **Rais o'rinbosari**

A'zolari:

3. Sh. Rasulov Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i
4. D. Sayfullayev Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
5. A. Vohidov Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektori
6. M. Qurbonov Andijon davlat chet tillar instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
7. E. Kurbanov Andijon davlat chet tillar instituti O'quv ishlari bo'yicha prorektori
8. M. Yakubbayev Namangan davlat chet tillar instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
9. P. Lutfullayev Namangan davlat chet tillar instituti O'quv ishlari bo'yicha prorektori
10. F. Ruziqulov Samarqand davlat chet tillar instituti O'quv ishlari bo'yicha prorektori
11. B. Turobov Samarqand davlat chet tillar instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori v.v.b.
12. O. Yusupov O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
13. M. Chutpulatov O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektori
14. A. Nasirov O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori
15. V. Sadiyev O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori

16. S. Abdullayev O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
17. U. Yuldoshev O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakulteti dekani
18. A. Yuldoshev O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili-1 fakulteti dekani
19. B. Kulmatov O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili-2 fakulteti dekani
20. T. Ismoilov O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili-3 fakulteti dekani
21. G. Ergasheva O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz filologiyasi fakulteti dekani
22. H. Hakimov O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiyasi fakulteti dekani
23. D. Djurayev O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti dekani

Izoh: Tashkiliy qo'mita a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalar yuklangan shaxslar kiritiladi.